

NAMANGANDA GUL SAYLI: SHAXSIY TASHABBUSDAN XALQARO FESTIVALGACHA

Sulaymonov Mo‘minjon Yusubjonovich,

Namangan davlat universiteti o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Payziyev Komiljon Sobirovich,

Namangan davlat universiteti o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Namangan shahrida gullarga bo‘lgan qadimiy e’tibor, gulchilik an’analari va “Gullar bayrami”ning shakllanish tarixi ilmiy manbalar hamda tarixiy dalillar asosida yoritiladi. Xususan, Boburiylar davridan boshlab Namangan hududida gulchilikning rivojlanishi, XIX–XX asrlarda ushbu an’aning yangi bosqichga ko‘tarilishi, mahalliy va xorijiy gulchilarning faoliyati, shuningdek, 1961-yildan boshlab gul bayramining ommaviy sayil va festival sifatida shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqotda gul bayramining milliy qadriyatlar, madaniy meros va turizm rivojida o‘rni ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: xalq sayllari, gul sayli, gul bayrami, festivallar, gulchilar, gul ishqibozlari, gul savdosi, xalqaro sayllar, ko‘ngilochar tadbirlar, milliy qadriyatlar, qadimiy an’analar, turizm, madaniy meros, tarixiy obidalar.

ABSTRACT

This article examines the ancient interest in flowers, floriculture traditions, and the history of the formation of the “Flower Festival” in Namangan based on scientific sources and historical evidence. In particular, the development of floriculture in the Namangan region since the time of the Baburians, the rise of this tradition to a new level in the 19th-20th centuries, the activities of local and foreign florists, as well as the process of the formation of the Flower Festival as a mass festival and festival since 1961 are analyzed. The study also reveals the role of the Flower Festival in the development of national values, cultural heritage, and tourism.

Keywords: folk festivals, flower festival, flower festival, festivals, florists, flower enthusiasts, flower trade, international festivals, entertainment events, national values, ancient traditions, tourism, cultural heritage, historical monuments.

Introduction

Xalq sayllari azaldan o‘zbek xalqining ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutib, ular nafaqat ko‘ngilochar ommaviy tadbirlar, balki tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik, jamoaviylik va hayotga mehr-e’tibor ramzi sifatida shakllangan. Bahor va

yoʻz fasllarida oʻtkaziladigan bunday sayllar orqali xalq tabiat uygʻonishini, hosildorlikni, goʻzallik va farovonlikni tantanali ravishda nishonlab kelgan. Oʻzbek anʼanaviy madaniyatida “Navroʻz sayli”, “Lola sayli”, “Qovun sayli”, “Suv sayli”, “Gul sayli”, “Bogʻ sayli” kabi xalq sayllari keng tarqalgan boʻlib, ularda tabiat neʼmatlarini qadrlash, estetik zavq va ijtimoiy hamjihatlik gʻoyalari mujassamdir.

Shu maʼnaviy-madaniy anʼanalar zamirida shakllangan hududlardan biri — Namangan shahri Fargʻona vodiysining shimoliy hududida joylashgan boʻlib, qulay iqlim sharoiti, unumdor tuproqlari va boy suv resurslari bilan ajralib turadi. Mazkur tabiiy omillar qadimdan Namanganda bogʻdorchilik va gulchilikning rivojlanishi uchun mustahkam zamin boʻlib xizmat qilgan. Shu bois Namangan aholisi orasida gullarga boʻlgan muhabbat va estetik did tarixan shakllangan barqaror madaniy hodisa sifatida qaraladi.

Namanganliklarning gulga boʻlgan mehri va tabiatni goʻzallashtirishga intilishi adabiy va tarixiy manbalarda ham oʻz ifodasini topgan. Xususan, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida Markaziy Osiyo va unga tutash hududlar tabiati tasvirlanar ekan, lolaning 200 dan ortiq turi mavjudligi alohida qayd etiladi. Bu kabi maʼlumotlar mintaqa tabiatining boyligi, gullar xilma-xilligi va ularning madaniy-estetik ahamiyati qadimdan yuksak boʻlganini koʻrsatadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Namanganda gulchilik anʼanalari yangi bosqichga koʻtarildi. Xususan, 1961 yil 24–27 avgust kunlari shaharda ilk bor gul koʻrgazmasining tashkil etilishi mazkur jarayonning muhim boshlanish nuqtasi boʻldi. Keyinchalik ushbu tadbir ommaviy gul bayrami sifatida anʼanaga aylanib, shaharning ijtimoiy-madaniy hayotida alohida oʻrin egalladi. Soʻnggi yillarda esa bogʻdorchilik, gulchilik va har yili oʻtkazilayotgan anʼanaviy Gullar festivali nafaqat mahalliy madaniy anʼana, balki hududning madaniy brendi sifatida shakllanib, xalqaro miqyosda eʼtirof etilayotgan madaniy hodisaga aylandi.

Materials and Methods

Maqolada asosan, tarixiy-tavsifiy metoddan foydalanilgan boʻlib, birlamchi maʼlumotlar yoshi ulugʻ mahalliy gulchilar bilan suhbatlardan yozib olingan.

Namangan shahri markazida joylashgan hozirgi “Zahiriddin Muhammad Bobur” nomidagi istirohat bogʻi oʻrnida qadimda “Gulzor” mahallasi joylashgan boʻlib, ayni paytda faoliyat yuritayotgan “Sharshara” yemakxonasi mahalla markazi hisoblangan. Shaharda gulchilik qadimdan rivoj topgan boʻlib, boylar va amaldorlar oʻz hovli hamda bogʻlarini turli gullar bilan bezaganlar. Bu hududdagi gulchilik dovruqʻi Qoʻqon xoni Xudoyorxon (1845–1876) eʼtiborini tortgan. Natijada u “Gulzor” mahallasi aholisini koʻchirib, hududni oʻz qarorgohi uchun egallagan.

“Beshchinor” choyxonasi pastidagi hozirgi ko‘l Xudoyorxon buyrug‘i bilan olib borilgan qurilish ishlari uchun loyhandaq vazifasini bajargan. Hozirgi “Nilufar” choyxonasi o‘rnida esa xon tomonidan ulkan masjid va madrasa bunyod ettirilgan. Garchi “Gulzor” mahallasi xonlik mulkiga aylantirilgan bo‘lsa-da, mazkur masjid va madrasa vaqf mablag‘lari hisobidan emas, balki xalqdan soliq yig‘ish orqali qurilgan. Shu sababli xalq orasida istehzoli baytlar paydo bo‘lgan:

Xudoyorxon Namangonda madrasa qilib erdi,

Bu madrasa aslida zulm birlan bo‘lib erdi,

Aning chun oqibatda ul, o‘rislarga makon bo‘ldi!

Xudoyorxon mazkur masjidni 1870–1874-yillar oralig‘ida qurdirgan. 1876-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyo istilo qilingach, bog‘ Namangan uyezdi general-gubernatori tasarrufiga o‘tkazilgan. Mustahkam qurilgan masjid va madrasa binolari shahar garnizoniga aylantirilib, rus askarlari ixtiyoriga berilgan. Shu asosda bog‘ tashkil etilganiga 151 yil to‘lganini qayd etish mumkin.

Results

Namanganda gulchilikning rivojiga katta hissa qo‘shgan kishilardan biri tatar millatiga mansub Tuxmullin (mahalliy aholi orasida To‘qmulla nomi bilan mashhur) va uning avlodlaridir. Asli Qozonlik bo‘lgan ushbu shaxs XIX asr boshlarida, xususan, 1830-yilda musulmon tatarlarga nisbatan tazyiqlar kuchaygan davrda Namanganga ko‘chib kelgan. U No‘g‘ay mahalla hududidan yer sotib olib, shu yerda istiqomat qilgan. Usta tujjorning yagona farzandi Izzatulla diniy va dunyoviy ilmlarni mukammal egallagan kishi bo‘lib, masjid-maktabda bolalarga saboq berish bilan birga gulchilik bilan ham shug‘ullangan. Izzatulla qori 1870–1910-yillar davomida o‘z xonadonida 200 dan ortiq gul va o‘simlik turlarini mahalliy iqlimga moslashtirib, parvarish qilgan. U gul urug‘larini tayyorlab, ularni sotish maqsadida 32 betlik lug‘at-risola chop ettirgan. Risolada urug‘larning tavsifi, shifobaxsh xususiyatlari, parvarish usullari, narxlari hamda buyurtma uchun muallif manzili ko‘rsatilgan. Arab imlosida, turkiy-tatar tilida nashr etilgan ushbu risolaning 1911-yilda bosmadan chiqqan nusxalaridan biri aniqlangan. Risola butun Rossiya bo‘ylab tarqatilib, buyurtmalar nihoyatda ko‘p bo‘lgan. Izzatulla qori ko‘plab bilimli va tajribali gulchi shogirdlarni yetishtirgan. Uning faoliyatini o‘g‘li Zohidulla hamda shogirdlari davom ettirgan. Zohidulla To‘qmullinov (avlod familiyalari To‘qmullaboyev, To‘qmullinov, To‘qmullayev shaklida uchraydi) 1886-yilda tug‘ilgan. U ham masjid xonaqosida bolalarga ta‘lim bergan va gulchilik bilan shug‘ullangan. Uning “Gulchilik ishqibozlariga” nomli kitobi 1964-yilda Toshkentda “O‘zbekiston” davlat nashriyotida chop etilgan bo‘lib, unda bog‘ va gulxonalarda o‘simliklarni parvarish qilish usullari yoritilgan.

Namanganda Nuriddin hoji, Halimsho aka, Respublikada xizmat ko'rsatgan agronom Abduqahhor Jalilov, Abduqodir Nasriddinov, Abdurahmon Madrahimov, Abdusamad Abdullayev, Eshondada Alixonov, Ziyodulla To'xmullayev, Rahimjon Zaripov kabi mashhur usta gulchilar yetishib chiqqan.

Bog' direktori Hoshimjon Nurmatov Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi bo'lib, har yili Yessentuki shahrida dam olgan. U yerda har bir fuqaro o'zi parvarish qilgan gullarni tuvaklarda uy oldiga qo'yishi, shahar rahbarlari esa eng saralarini ko'paytirishga topshiriq berishini kuzatgan. Direktorning tashabbusi bilan ushbu tajriba Namanganda ham amaliyotga joriy etildi. Shaharning ko'cha va yo'laklari bo'ylab gul ekish ommaviy tus oldi. Natijada gulzorlar maydoni qariyb 15 gektarga yetib, 800 dan ortiq gul turi parvarish qilindi. Bu davrda bog' hududida issiqxona ham tashkil etilib, qish oylarida ham turli gul navlari parvarish qilindi. Shuningdek, ikki qavatli muhtasham gul do'koni qurildi.

1961-yil 19-20-avgust kunlari Namanganda ilk gul bayrami - "Gul vistavkasi" o'tkazildi. Bu haqda "Namangan haqiqati" gazetasi sahifalarida e'lonlar berildi, bog' radiouzelida "Gul va gullar bayrami" nomli maxsus eshittirishlar tashkil etildi. Ko'rgazmada shahar markaziy shifoxonasi, energokombinat, 2-paxta tozalash zavodi, 3-maktab, yosh texniklar va naturalistlar stansiyasi ko'rgazmalari alohida e'tirof etildi. Ushbu davrda Namangan shahar rahbari Zohidjon Yo'ldoshev bo'lgan. Kelgusi, ya'ni 1962-yilda ham Namangan shahar rahbariyati tomonidan gulchilarga keng imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, shaharning bosh rahbari Tursun Ro'ziboyev, ijroqo'm raisi Melixon Ibrohimova hamda bog' direktori Hoshimjon Nurmatov gulchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, gulchilar uchun a'lo darajadagi shart-sharoitlarni ta'minlashga alohida e'tibor qaratdilar.

"Namangan haqiqati" gazetasining 1962-yil 13-may sonida "Namangan gul shahri bo'lsin!" shiori ostida keng jamoatchilikka qaratilgan chaqiriq e'lon qilindi. Ushbu tashabbusni shaharning taniqli gulchilari — Eshondada Alixonov, Solixon Nosirov, Yo'ldosh Rahimov, Abdusamad Abdullayev, Yo'ldosh Obixonov, Abdurahim G'afforov, Aleksandra Maslennikova hamda Ramazon Murodrasulovlar qo'llab-quvvatladilar.

"Namangan gulchilarining shahardagi barcha mehnatkashlarga murojaati" nomli chiqishda ilgari surilgan "Qayerga bir tup gul o'tqazish mumkin bo'lsa, o'sha yerni gulsiz qo'ymaylik!" degan da'vat jamoatchilik qalbida katta aks-sado uyg'otdi. Natijada 1962-yil 18–19-avgust kunlari shaharda ikkinchi gul bayrami tantanali ravishda nishonlandi. Unda 15 ta tashkilot va 30 ga yaqin gul ishqibozlari faol ishtirok etdilar.

Toshkent teatr va rassomchilik institutining talabasi Po‘lat Jalilov birinchi va ikkinchi gul bayramlarining g‘olibi sifatida e‘tirof etildi. U o‘z davri fan va texnikasining yirik yutug‘i hisoblangan “Vostok-3” va “Vostok-4” fazo kemalarining muvaffaqiyatli parvozini jonli gullar orqali badiiy ifodalab bergan edi. Ikkinchi darajali mukofot agronom Abduqahhor Jalilov, Abduqodir Nasriddinov, shahar kommunal xo‘jaligi, 3-maktab hamda yosh texnik va naturalistlar stansiyasiga topshirildi. Uchinchi darajali mukofot esa 2-paxta tozalash zavodi, energokombinat va 15-g‘isht zavodlari boshqarmasiga nasib etdi. Aynan o‘sha yillardan boshlab an‘anaviy gul bayramining o‘tkazilish tartib-qoidalari, g‘oliblarni aniqlash va taqdirlash bilan bog‘liq standartlar ishlab chiqildi. Hozirga kelib gullar bayrami Namangan shahri va tumanlarda ham, bir oy davomida juda ko‘tarinki ruhda o‘tkazilmoqda.

Discussion

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor 1962-yilda “O‘zbekiston madaniyati” gazetasida chop etilgan maqolasida Namangan shahri haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Kishi Namanganga kirgan zamoni bir narsani payqaydi: shahar gul shahri, bo‘ston shahar bo‘lib bormoqda. Gap gul va daraxtning ko‘pligida emas, balki har bir tup gul, har bir tup daraxtga bittadan ishqiboz gulchi-bog‘bon girgitton bo‘lib, ertayu kech shoxini tarab, bargini sanab turgandek tuyuladi”.

Darhaqiqat, Namangan gullari nafaqat mahalliy aholi, balki mamlakatimiz ijodkorlari orasida ham katta ilhom manbai bo‘lgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi Izzat Sultonov, O‘zbekiston xalq shoirlari — G‘afur G‘ulom, Zulfiya, Charxiy, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Hamid G‘ulom, Asqad Muxtor, Husniddin Sharipov, Hakim Nazir, Nazarmat, Uyg‘un, Ramz Bobojon, Oydin Hojiyeva, Habib Sa‘dulla, shuningdek, O‘zbekiston xalq yozuvchilari — Turob To‘la, Said Ahmad, O‘tkir Hoshimov, Nosir Fozilov hamda O‘zbekiston xalq artistlari — Razzoq Hamroyev, Nabi Rahimov, Kamoliddin Rahimovlar Namangan gullariga bag‘ishlab she‘rlar, asarlar va qo‘shiqlar yaratganlar. Shuningdek, kosmonavt-uchuvchi Titov, Ittifoq Fanlar akademiyasi akademigi Keldish, “Kapital” asari muallifi Karl Marksning evarasi Rober Jan Longe, mashhur hind kinoaktyori Raj Kapurning o‘g‘li Rindhir Kapur, nemis jurnalisti Zid Zigmund, ukrain yozuvchisi Ivan Le, moskvalik mashhur shoir Rimma Kazakova hamda Tojikiston xalq shoiri Ota Otajonovlarning Namangan bog‘i va gulchiligi haqidagi dastxatlari bugungi kunda qimmatli tarixiy xotira sifatida saqlanmoqda.

Vaqt o‘tishi bilan Namanganda gul bayramining mazmun-mohiyati yanada kengayib bordi. Bu an‘anaga o‘nlab va yuzlab madaniy-ma‘rifiy tadbirlar uyg‘unlashtirildi. Gulchilik faqat shahar doirasida emas, balki tumanlar miqyosida

ham rivojlandi. Jahon gullari Namanganni o'ziga xos makon sifatida tanladi va bu yerda har yili yangi navlar yaratilmoqda. Bu jarayonni magnoliya guli misolida yaqqol ko'rish mumkin. 1967–1973-yillarda viloyatga rahbarlik qilgan Asadulla Xo'jayev shaharni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Bu davrda Namangan shahri rahbari Qodirjon Mamarasulov hamda shahar obodonlashtirish idorasi rahbari Semyon Farajev Qora dengiz bo'yidan bir necha tup magnoliya ko'chatlarini olib kelganlar. Ko'chatlar viloyat ma'muriy idorasi ro'parasiga o'tqazilib, ularni mahalliy iqlimga moslashtirish uchun katta mehnat sarflangan: yozning jazirasida kuniga bir necha bor suv sepilib, Qora dengiz iqlimiga yaqin muhit yaratilgan, qishning izg'iridan esa o'rab-chirmab asrab qolingan. Natijada magnoliya Namangan zaminida muvaffaqiyatli ildiz otgan.

Bugungi kunga kelib gul bayrami mahalliy aholi va mehmonlar uchun nafaqat madaniy balki, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham manfaatli tadbirga aylanib ulgurdi. Gullar festivaliga tashrif buyurgan mehmonlar Namangan shahri va uning atrofida joylashgan tarixiy obidalar bilan ham tanishadilar. Jumladan, Mulla Qirg'iz madrasasi va maqbarasi, Xo'ja Amin ziyoratgohi, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi istirohat bog'i hamda "Afsonalar vodiysi" parki festival dasturining muhim qismini tashkil etadi. Mehmonlar turli attraksionlarda dam olib, namanganlik mohir oshpazlar tomonidan tayyorlangan shirin va lazzevatli taomlardan bahramand bo'ladilar. Xususan, choyxona palov, kosa somsa hamda Namangan brendiga aylangan shirmon non festival mehmonlari orasida alohida e'tirof etiladi. Shuning uchun ham gullar festivaliga tashrif buyuruvchi mehmonlar geografiyasi ham yildan-yilga kengayib bormoqda. Jumladan qo'shni viloyatlardan tashqari, MDH davlatlaridan hamda boshqa mintaqalardan ham mehmonlar soni ortib bormoqda.

CONCLUSION

Xulosa qilib aytganda, Namangan shahrida gullarga bo'lgan e'tibor va gulchilik an'analari chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, ular asrlar davomida shakllanib, avloddan avlodga o'tib, uzluksiz davom etib kelmoqda. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida qayd etilgan ona tabiat va gulchilik bilan bog'liq estetik qarashlar, XIX asrda Namangan hududida gulchilikning keng rivoj topgani, shuningdek, XX asr o'rtalaridan boshlab gul bayramining ommaviy sayl va festival shakliga ega bo'lishi mazkur an'ananing uzviy davomiyligini ko'rsatadi.

Maqolada keltirilgan tarixiy va manbashunoslik ma'lumotlar Namanganda gulchilik faqat estetik hodisa emas, balki ijtimoiy-madaniy hayotning muhim tarkibiy qismi ekanini tasdiqlaydi. Gul bayramlari orqali jamoatchilikni obodonlashtirishga jalb etish, shaharning me'moriy qiyofasini yaxshilash, ekologik muhitni sog'lomlashtirish bilan bir qatorda, aholi ongida go'zallik va tabiatga ehtirom

tuyg'ularini mustahkamlashga erishilgan. Shuningdek, Namangan gullar bayramining mazmun-mohiyati yillar davomida kengayib, u mahalliy sayl doirasidan chiqib, xalqaro madaniy tadbir darajasiga ko'tarilgani ayni haqiqatdir. Festival doirasida tarixiy obidalar, milliy taomlar va xalq hunarmandchiligining namoyish etilishi ushbu tadbirning turizm salohiyatini oshirib, Namanganning boy madaniy merosini keng jamoatchilikka tanitishga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Namangandagi gullar bayrami nafaqat hududiy madaniy an'ana, balki milliy qadriyatlar, ekologik tarbiya va madaniy turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi kompleks ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida baholanishi ko'rilishi lozim. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida xalq sayllari, madaniy festivallar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. (2002). *Boburnoma*. Toshkent.
2. Zahiriddin Muhammad. (2014). *Bobur ensiklopediyasi*. Toshkent: Sharq.
3. Olim, Sultonmurod. (2008). *Bayramlarimiz*. Toshkent: Ma'naviyat.
4. Sulaymonov, M., Xodorova, G., & Rohataliev, A. (2024). Xalq sayllari – tarbiya manbai. In *Jizzax xalqaro anjumani materiallari* (JDPI 50 yilligiga bag'ishlangan anjuman). Jizzax.
5. Sulaymonov, M., Xodorova, G., & Rohataliev, A. (2024). Xalq sayllari – tarbiya manbai. *NamDU ilmiy axborotnomasi*, 11, 550–555.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2023). (Vol. 4). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
7. Sulaymonov, M., & Sulaymonova, H. (2025). *Namangan flowers: From local tradition to international cultural festival*. В Т. V. Smirnova (Ed.), *Цифровая трансформация образования: вызовы и перспективы XXI века: материалы международной научно-практической конференции* (12 декабря 2025 г., Москва). Москва: ЦПМ «Академия просвещения».